ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43, Termez city.
Phone: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV HIKOYALARIDA MILLIY-MADANIY BIRLIKLAR TARJIMASI: MILLIY KOLORITNI SAQLASH STRATEGIYALARI

Murodullayeva Sarvinoz Yorqin qizi,
Navoiy davlat universiteti assistent o'qituvchisi

Badiiy asar tarjimasi, ayniqsa, bolalar va xalqona ruhdagi hikoyalar tarjimasi oddiy mazmun ko'chirishdan yoki so'zma-so'z tarjima qilishdan iborat emas. Har qanday tilda yozilgan asar o'sha tilning o'ziga xos milliy xotira, madaniy tajriba, urf-odat, ijtimoiy munosabat va etnik dunyoqarashini aks ettiradi. Tarjima nazariyasi doirasida madaniyat omili markaziy ahamiyatga ega bo'lib, badiiy tarjima faqat til emas, balki butun bir madaniy tizimlararo ko'chirish jarayoni sifatida qaraladi[1]. Shu nuqtayi nazardan, milliy-madaniy birliklarning badiiy matnda qanday namoyon bo'lishi va tarjima jarayonida qanday qayta ifodalanishi muayyan yozuvchi ijodi misolida o'rganilganda yanada aniqroq ko'zga tashlanadi. Bu jihatdan Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalari milliy-madaniy birliklarning tarjimada berilishini tahlil qilish uchun muhim badiiy material vazifasini bajaradi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'zbek bolalar adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yosh avlod tarbiyasiga xizmat qiluvchi sermahsul asarlari bilan e'tirof etilgan yozuvchidir[2]. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari yumorga boyligi, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos tabiati xususiyatlari ruhiy kechinmalari nihoyatda jonli, qiziqarli va bolalarga mos yo'sinda mahorat bilan tasvirlanishi jihatidan ajralib turadi[3]. Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalari o'zbek milliy hayoti, xalqona tafakkur, ijtimoiy muomala, qarindoshlik, mehmondo'stlik va axloqiy qadriyatlarni yorqin aks ettiradi. Masalan, hikoyalar to'plamidagi – «bozor», «duosini olmoq», «Tiyin – pul birligi», «dadasi, onasi», «qumtaka o'ynash», «qiyiq», «belbog'«, «Barakallo», «Otaxon», «o'choqboshi» kabi milliy-madaniy birliklar tarjimasi oddiy tarjimadan biroz farq qilib, tarjimaning boshqa usul va strategiyalaridan foydalanishni talab etadi. Bunday leksik birliklarni tarjima qilishda bir qator muammolar yuzaga chiqadi. Ularning boshida – ekvivalent yetishmasligi, semantik ko'lamdagi tafovutlar, kontekstga mos kelmaydigan tarjimalar, ma'no va madaniy yuklamaning to'liq uzatilmasligi turadi. Shuningdek, ba'zi birliklar tarjima qilinganida o'z semantik chuqurligini yoki estetik ta'sir kuchini yo'qotadi. Shu sababli tarjimon nafaqat til bilimdoni, balki madaniyatlararo vositachi sifatida ham faoliyat yuritishi kerak bo'ladi[4]. Shu bois uning hikoyalarini ingliz tiliga tarjima qilishda milliy-madaniy birliklarni qay tarzda berish masalasi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Tarjimon bir tomondan maqsad til o'quvchisi uchun matnni tushunarli qilishga intilsa, ikkinchi tomondan asliyatdagi milliy ruhni ham imkon qadar saqlashi lozim. Bu esa tarjimada domestikatsiya va forenizatsiya strategiyalari o'rtasidagi tanlovni dolzarb qiladi[5].

Mazkur maqolada, Xudoyberdi To'xtaboyevning tanlangan hikoyalaridagi milliy-madaniy birliklar va ularning inglizcha tarjimalari tahlil qilingan bo'lib, ushbu birliklarni tarjima qilishda qo'llangan lingvistik va tarjima strategiyalari, milliy-madaniy birliklar aniqlanib tahlil qilinadi hamda leksik-semantik jihatdan tasniflanadi. Shuningdek, ushbu birliklarning ingliz tilidagi tarjimasida qay usulda ifodalangani tahlil qilinib, asliyatdagi milliy koloritning tarjima matnida saqlanish darajasi baholanadi.

Tarjimashunoslikda madaniy birliklar ma'lum bir xalq hayoti, urf-odati, moddiy va ma'naviy madaniyatiga mansub bo'lgan, boshqa tilda to'liq tayyor muqobili bo'lmagan birliklar sifatida talqin etiladi. Tarjimada realiyalar – muayyan madaniyatga xos

[1] Bassnett S. Translation studies (4th ed.). – London: Routledge. New Accents, 2013.

[2] Raximova R. Adabiyotshunoslikda Xudoyberdi To'xtaboyev ijodining Umarali Normatov tomonidan baholanishi. // Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. 61-son 2-to'plam. May-2025. – B. 275-278.

[3] Bo'riyeva D. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarining bolalar adabiyotidagi o'rni. // Journal of universal science research. 6.03.2023. – B.399-403.

[4] Jo'raqulova R. O'zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy semali leksik birliklarni tarjima qilish muammolari. // Tamaddun nuri jurnali. 30.06.2025. – B. 329-331.

[5] Venuti L. The translator's invisibility: A history of translation. Routledge. (2nd edition) (Original work published 1995), 2008. – P. 20-24.

moddiy unsurlarni ifodalovchi so'z va iboralardir. Realiya so'zi «lotin» tilidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab «haqiqiy narsalar», ya'ni mavhum tushunchalardan farqli ravishda moddiy narsalar ma'nosini anglatgan[1]. P.Newmark[2] bunday birliklarni «cultural words» sifatida baholab, ularni tarjima qilishda oddiy lug'aviy moslik so'zma-so'z tarjima yetarli bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bolgariyalik tarjimonlar S.Vlahov va S.Florin[3] realiyalarni chuqur o'rgangan dastlabki tadqiqotchilar bo'lib, ushbu atamaning zamonaviy ma'nosini ilmiy muomalaga kiritganlar. Ularning ta'kidlashicha, realiyalar kuchli mahalliy koloritga ega bo'lgani sababli, ular tarjimada ko'pincha muayyan qiyinchilik tug'diradi. M.Baker[4] bunday holatlarni so'z darajasidagi noekvivalentlik bilan bog'laydi va madaniy tafovutlar tarjimon oldiga maxsus strategik tanlov vazifasini qo'yishini ta'kidlagan.

Milliy-madaniy birliklar tarkibiga nafaqat an'anaviy buyumlar yoki ovqat nomlari, balki qarindoshlik atamalari, murojaat shakllari, maqolona ifodalar, marosim birliklari, ijtimoiy-tarixiy tushunchalar va folklor namunalari ham kiradi. Aynan shu qatlam badiiy matnda milliy koloritni yaratadi. Milliy kolorit esa asarning milliy ruhini, ijtimoiy muhitini, ma'naviy atmosferasini va xalqona tafakkurini aks ettiruvchi uslubiy-madaniy qatlamdir.

I.G'afurov, O.Mo'minov va N.Qambarov[5] tarjimani madaniyatlararo hodisa sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, tarjima jarayonida tarjimon nafaqat til birliklari, balki xorijiy madaniyat bilan ham yuzlashadi va shu madaniy tushunchani tarjima tilida tushunarli izohlab berishlari kerak. Shu sababli tarjimaning muvaffaqiyati tarjimonning boshqa xalq madaniyatini qanchalik chuqur anglashiga bog'liq bo'ladi.

Tarjimada bunday milliy-madaniy birliklarni berishda ko'pincha quyidagi strategiyalar qo'llanadi:

- transliteratsiya;
- transkripsiya;
- tavsifiy tarjima;
- funksional muqobil;
- umumlashtirish;
- almashtirish;
- tushirib qoldirish;
- izoh berish.

Domestikatsiya asarni maqsad til madaniyatiga yaqinlashtirsa, forenizatsiya asliyatning madaniy begonaligini saqlab qoladi. Realiyalar faqat alohida so'zlar bilan cheklanmaydi, balki milliy xususiyatga ega frazeologik birliklarda ham namoyon bo'ladi. I.G'afurov, O.Mo'minov va N.Qambarov[6] ayrim frazeologik birliklarning boshqa tillarda to'liq mos muqobili bo'lmasligini qayd etib, bunday birliklarni so'zma-so'z, analogik yoki tasviriy usulda tarjima qilish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

E.Nida[7] ekvivalentlik masalasini qabul qiluvchi auditoriyaning reaksiyasi masalasini muammo markaziga qo'yadi. Bu yondashuv, ayniqsa, bolalar adabiyoti tarjimasida muhim, chunki tarjimon ko'pincha mazmuniy ravshanlikni birinchi o'ringa qo'yadi. Biroq bunday yondashuv ayrim hollarda asliyatning etnomadaniy chuqurligini pasaytirishi mumkin. Bolalar adabiyoti ham aslida madaniy qadriyatlarni uzatuvchi maydon bo'lib, undagi har bir lokal birlik identitet va xotira bilan chambarchas bog'liqdir[8]. Shunday qilib, ushbu maqolada tarjima sifati ikki mezon asosida baholanadi: birinchisi, semantik aniqlik, ikkinchisi, milliy-madaniy ma'noni saqlash darajasi.

Yuqoridagi nazariy tahlillarga asoslanib, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Qaylardasan bolaligim» hikoyalar to'plamidagi o'zbekcha hikoyalarning inglizcha tarjimasi bilan qiyosiy taqqoslanib chiqildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tarjimoning asosiy tendensiyasi bolalalar adabiyotiga xos ravonlikni saqlash maqsadida kommunikativ moslashtirishni qo'llashdan iborat bo'lgan. Natijada, o'quvchi uchun tushunarlilik oshgan, biroq o'zbek nutq etiketi, affektiv suffikslar, folklor namunalari va ayrim tarixiy-institutsional realiyalarning milliy kolorit darajasi pasaygan. Tahlil jarayonida eng barqaror saqlangan qatlam *an'anaviy buyumlar va maishiy predmetlar* bo'ldi. Ularga quyidagilar misol bo'ladi: *hassa, behi tayoq, loydan yaslagan uycha, o'choq boshidagi to'nka.*

Yuqoridagi leksik birliklar tarjimada ko'pincha tavsifiy yo'l bilan muvaffaqiyatli berilgan. Eng zaif qatlam esa folklor turg'un birliklaridir. *Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qissadan hissa, tilingdan o'rgilay, suyunchi bering* singari birliklarda funksional ma'no qisman o'tgani bilan, lokal nutq madaniyati va obrazli etnopragmatika yumshatilgan.

Qarindoshlik va murojaat birliklarida semantik asos saqlangan, ammo

-jon, -aka, -amaki, -xola kabi ijtimoiy-affektiv in-

[1] https://en.wikipedia.org/wiki/Main_Page

[2] Newmark P. A textbook of translation. – Prentice Hall, 1988. – P. 94-95.

[3] Влахов С. и Флорин С. Непереводимое в переводе. "Реалии" в фильме Бруно Осимо. "Мануал переводчика, второе издание". – Хоупли, 2004. – С. 63

[4] Baker M. In other words: A coursebook on translation (3rd ed.). – Routledge, 2018.

[5] G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. – B. 26-31.

[6] G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. – B. 26-31.

[7] Nida E. Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating. – Brill Archive, 1964.

[8] Nikolajeva M. Children's literature comes of age: Toward a new aesthetic. – Routledge, (Original work published 1996), 2015.

dekslar to'liq ko'chmagan.

Taom va mehmondo'stlikka oid birliklarda *suyunchi, piyola limmo-lim sut, qatiq* tipidagi birliklarda esa izoh yetishmasligi yoki madaniy moslashtirish milliy tasvirni susaytirgan. Milliy o'ziga xos so'zlar quyida bir necha yo'nalishlarga ajratilgan holda izohlandi:

I. *Qarindoshlik atamalari va murojaat shakllari.* Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida asliyat matnida qarindoshlik atamalari faqat biologik munosabatni emas, balki hurmat, yaqinlik va ijtimoiy muomala me'yorlarini ham ifodalaydi. Masalan, **«Do'stlik»** hikoyasida *Shodmon bobo* birikmasi inglizchada **«Grandfather Shodmon»**, *Stepan amaki* esa **«Uncle Stepan»** tarzida berilgan. Bu yerda funksional muqobil strategiyasi qo'llangan. Tarjima ma'noni umumiy jihatdan to'g'ri yetkazadi, ammo o'zbek tilidagi *amaki, bobo* kabi birliklari faqat qarindoshlik emas, ijtimoiy hurmat va samimiyat ifodasi sifatida qo'llaniladi. Ammo inglizcha tarjimada qarindoshlik so'zlari aynan o'zbek tilidagi ma'noni anglatmaydi.

«Ona allasi» hikoyasida *onajon* so'zi **«mother»** tarzida berilgan. Semantik jihatdan mos bo'lsa-da, *-jon* qo'shimchasidagi mehr, erkalash hamda hissiy yaqinlik tarjima matnida to'liq ifodalanmagan. Demak, bu yerda mazmun saqlangan, ammo emotsional-ekspressiv kayfiyat beruvchi affiks tarjima qilinmaganligi uchun emotsionallik darajasi pasaygan.

«Podshoh va kampir» hikoyasidagi *kampir* leksemasi **«old woman»** tarzida berilib, izohda uning o'zbek madaniyatidagi hurmat va donishmandlik timsoli ekani tushuntirilgan. Bu yechim nisbatan samarali, chunki asosiy matndagi soddalashtirish izoh vositasida qisman kompensatsiya qilingan. Biroq «old woman» iborasi ingliz tilida ba'zan neytral yoki hatto salbiy semantik tus olishi mumkin. *Kampir* esa xalqona hikoyatda axloqiy haqiqatni ayta oladigan hikmat egasi sifatida yangraydi.

II. *An'anaviy buyumlar va ro'zg'or predmetlari.* Milliy koloritni yuzaga chiqaruvchi muhim qatlamlardan biri moddiy madaniyat birliklaridir. **«Ona allasi»** hikoyasidagi *mis choynak* va *chinni kosa* birikmalari inglizchaga **«copper teapot»** va **«porcelain bowls»** tarzida tavsifiy tarjima qilingan. Bu usul predmetlarning moddiy xususiyatini saqlab qoladi va o'quvchiga aniq tasavvur bera oladi. Shu bilan birga, ularni o'zbek maishiy muhitining ichki bir qismi sifatida emas, balki shunchaki buyum sifatida qabul qilish ehtimoli kuchayadi.

«Podshoh va kampir» hikoyasidagi *xurjin* so'zi **«saddlebags»**, *chopar* esa **«herald»** yoki izohda **«messenger / courier»** tarzida berilgan. *Xurjin* uchun tanlangan muqobil yetarli darajada muvaffaqiyatli, chunki u ko'chma hayot va ot bilan yurish madaniyatini ifodalaydi. Ammo *chopar*ning «herald» orqali berilishi ayrim hollarda o'zbek tarixiy muhitidan ko'ra Yevropa saroy an'analarini eslatishi mumkin. *Qo'rg'oncha* leksemasining **«small fortress»** shaklida tarjima qilinishi esa uning tashqi funksional belgisini beradi, ammo mahalliy koloritni va tarixiy aniqlikni tasvirlay olmaydi.

III. *Mehmondo'stlik, dasturxon va noz-ne'matlar.* O'zbek madaniyatining eng yorqin ko'rsatkichlaridan biri mehmondo'stlikdir. **«Podshoh va kampir»** hikoyasida *dasturxon, noz-ne'matlar*, meva tortish, sharbat siqish va yo'lga ozuqa solib yuborish kabi detallarda aynan shu madaniyat ifodalanadi. *Noz-ne'matlar* birligi inglizchada **«delicacies / rich foods»** tarzida izohlangan. Bu ma'lum ma'noda to'g'ri bo'lsa-da, *noz-ne'matlar* so'zidagi «baraka», «izzat-hurmat bilan tortilgan ne'mat» ma'nosi ancha torayib qolgan va ushbu tushuncha tarjima matnida asliyat matnidagi to'liq ma'noni yetarlicha chiqara olmagan.

Milliy birliklardan *dasturxon* birligi, ayniqsa, markaziy ahamiyatga ega. O'zbek madaniyatida u shunchaki ovqat qo'yiladigan joy emas, balki ijtimoiy birlik, hurmat, to'kinlik va mehmondo'stlik semalarini ifodalaydi. Tarjimadagi tegishli izoh noto'g'ri berilgani bu birlikning madaniy yukini deyarli yo'qqa chiqarishi mumkin. Bu esa tarjimada madaniy izohlarning to'g'riligi naqadar muhim ekanini yana bir bor isbotlaydi.

«Do'stlik» hikoyasida Shodmon boboning belbog'idan mayiz, o'rik, shaftoliqoqi chiqarib berishi, kuzda do'stiga olma yuborish sahnalari ham milliy, maishiy-madaniy muhitni yaratadi. Inglizcha tarjimada ushbu mevalar tavsifiy tarzda berilgan bo'lsa-da, asliyatdagi ota-bobo mehrining xalqona shakli va bog'dorchilik madaniyatining ichki ruhi biroz susayganligini ko'rishimiz mukin.

IV. *Folklor formulalari va maqol, iborali ifodalar.* Milliy-madaniy birliklarning eng murakkab turi maqol, matal va folklor formulalaridir, chunki ular nafaqat ma'no, balki obraz, ritm va xalqona tafakkurni ham o'zida mujassamlashtiradi. **«Do'stlik»** hikoyasidagi *«Sabr qilsang, g'o'radan halvo bitar»* iborasi inglizchada **«If you wait patiently, good things will come from the orchard»** tarzida berilgan. Tarjima maqolning umumiy pragmatik ma'nosini saqlagan, biroq asliyatdagi jonli metaforik obrazni yo'qotgan. Ushbu holatda birlikni ma'noviy tarjimasidan ko'ra unga ekvivalent keladigan ibora yoki maqolni ishlatish ham maqsadga muvofiq bo'lardi. Bundan tashqari, matndagi izohda *g'o'ra* noto'g'ri sharhlangan. Natijada tarjima mazmunni qisman yetkazgan bo'lsa-da, xalqona tasavvur va obrazlilikni saqlay olmagan.

«Podshoh va kampir» hikoyasidagi *qissadan hissa* iborasi **«moral of the story»** tarzida berilishi esa funksional jihatdan samarali yechim bo'lgan.

Garchi bu domestikatsiya bo'lsa-da, iboraning matndagi vazifasi to'g'ri saqlangan. Xuddi shunday, *bir bor ekan, bir yo'q ekan* formulasining **«once upon a time»** tarzida berilishi ingliz o'quvchilari uchun matnni tushunarli qiladi, chunki odatda ingliz tilidagi ertaklar shu shaklda boshlanadi. Biroq bu kabi tarjima o'zbek tilidagi milliylik, oziga xoslikni to'liq ochib bermaydi.

Ijtimoiy-tarixiy realiyalar. Madaniy birliklarning yana bir turi tarixiy va ijtimoiy tuzum bilan bog'liq bo'lgan realiyalardir. **«Do'stlik»** hikoyasidagi *kolxoz* so'zining **«collective farm»** tarzida berilishi funksional jihatdan maqbul bo'la oladi, chunki bu tarjima sovet davri qishloq xo'jaligi tizimini ingliz o'quvchisiga anglatadi va ortiqcha izoh talab qilmaydi.

«Podshoh va kampir» hikoyasidagi *o'lpon* birligi esa **«tax / tribute»** sifatida izohlanadi va bu yechim nisbatan muvaffaqiyatli bo'ladi. Chunki u tarixiy-hokimiyat munosabatini saqlaydi va matndagi ijtimoiy adolat g'oyasi bilan uyg'unlashadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hikoyalarning tarjima matnida asosan ingliz o'quvchisi uchun ravshanlik va soddalikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalar anchagina ustun. Tavsifiy tarjima va funksional muqobillar ko'plab hollarda asar voqealarini tushunarli yetkazishga xizmat qilgan va bu jihatdan tarjimalar kommunikativ vazifani bajaradi.

Biroq X.To'xtaboyev hikoyalari oddiy syujetli matnlar emas. Ular o'zbek milliy dunyoqarashi, ijtimoiy muomala va hissiy xotira qatlamlarini ifodalaydi. Shu sababli *alla*, *dasturxon*, *onajon*, *kampir* kabi birliklarning neytrallashuvi yoki noto'g'ri izohlanishi asliyatdagi etnomadaniy yukni kamaytiradi.

Shu bilan birga, har bir madaniy birlikni ham albatta, transliteratsiya qilish shart emas. Masalan, *qissadan hissa* yoki b*ir bor ekan, bir yo'q ekan* kabi birliklarni funksional muqobil bilan berish o'zini oqlaydi. Demak, eng samarali yo'l – selektiv yondashuv. Markaziy milliy ramzlarni saqlash, ikkilamchi yoki strukturaviy birliklarni esa maqsadli, til imkoniyatlariga mos tabiiy shaklda berishdir.

Xudoyberdi To'xtaboyevning «Qaylardasan bolaligim» to'plamidagi hikoyalari tahlili shuni ko'rsatdiki, milliy-madaniy birliklar ushbu asarlarning badiiy va g'oyaviy mohiyatini belgilovchi asosiy qatlamlardan biridir. Shu bilan bir qatorda, ular qarindoshlik, mehmondo'stlik, marosim, xalqona hikmat, ro'zg'or buyumlari va ijtimoiy-tarixiy hayot orqali o'zbek xalqining milliy ruhini shakllantiradi. I.G'afurov, O. Mo'minov va N.Qambarov[1] realiyalarni tarjima qilish tarjimon uchun alohida nazariy va amaliy tayyorgarlikni talab etishini ta'kidlaydi. Chunki joy nomlari, ismlar, idora nomlari, milliy iboralar va urf-odatga oid birliklar oddiy lug'aviy tarjima, so'zma-so'z tarjima usuli bilan to'liq ochilmaydi. Bunday birliklar asliyat, xalqining madaniy tajribasi va milliy koloritini ifodalagani sababli, ularni tarjima qilishda mazmun, vazifa va madaniy kontekstni hisobga olish zarur. Bu tarjimada alohida yondashishni talab qiladi. Bu usullar tarjimonda asliyatdagi milliy koloritni saqlash yoki uni tarjima tili o'quvchisiga tushunarli shaklda yetkazish imkonini beradi.

Inglizcha tarjimalarda ushbu birliklarni ifodalashda funksional muqobil, tavsifiy tarjima, umumlashtirish, izoh berish va ba'zan transliteratsiya strategiyalaridan foydalanilgan. Muvaffaqiyatli tarjimalar odatda ma'no bilan birga madaniy ko'rinishni ham saqlagan. Biroq ayrim hollarda soddalashtirish, noto'g'ri izohlash, so'zma-so'z tarjima qilish yoki tushirib qoldirish natijasida asliyatdagi milliy kolorit ochilmagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarini tarjima qilishda eng maqbul yo'l – tushunarlilik va milliylik o'rtasidagi muvozanatni saqlashdir. Ayniqsa, *alla*, *dasturxon*, *kampir*, *onajon* kabi markaziy madaniy birliklarni imkon qadar asliyatga yaqin shaklda, zarur bo'lsa qisqa izoh bilan berish maqsadga muvofiq desak adashmagan bo'lamiz. Ana shundagina tarjima nafaqat syujetni, balki o'zbek madaniyatining ichki ruhini ham yetkazishga qodir bo'la oladi.

Rezyume. Mazkur maqolada Xudoyberdi To'xtaboyevning «Qaylardasan bolaligim» hikoyalar to'plamidagi hikoyalarning inglizcha tarjimalari misolida milliy-madaniy birliklarni tarjimasidagi asosiy muammolar tahlili amalga oshirildi. O'zbek xalqining turmush tarzi, qarindoshlik munosabatlari, mehmondo'stlik madaniyati, an'anaviy buyumlarini ifodalovchi madaniy birliklarning inglizcha tarjimada qay tarzda ifodalanishi tadqiqotning asosiy obyekti sifatida olindi. Ushbu maqolada Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarini tarjima qilishda tushunarlilik va milliy koloritni saqlash o'rtasidagi muvozanat muhim ekani asoslab beriladi.

Резюме. В данной статье анализируются основные проблемы перевода национально-культурных единиц на материале английских переводов рассказов из сборника Худойберди Тухтабаева «Қайлардсан, болалигим». Основное внимание в исследовании уделяется способам передачи в английском переводе культурно маркированных единиц, отражающих образ жизни узбекского народа, родственные

[1] G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. – B. 26-31.

отношения, культуру гостеприимства, а также традиционные предметы быта. В статье обосновывается, что при переводе рассказов Худойберди Тухтабаева особую значимость приобретает соблюдение баланса между обеспечением понятности текста для иноязычного читателя и сохранением национального колорита оригинала.

Resume. This article analyzes the major problems of translating national-cultural units on the basis of the English translations of stories from Khudoyberdi Tukhtabayev's story collection «Qaylardasan, bolaligim». The study focuses on the ways in which culturally marked units reflecting the lifestyle of the Uzbek people, kinship relations, the culture of hospitality, and traditional household items are rendered in English translation. The article argues that, in translating Khudoyberdi Tukhtabayev's stories, it is essential to maintain a balance between ensuring the comprehensibility of the text for the target reader and preserving the national colouring of the original.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SUD-TIBBIY EKSPERTIZA MATNLARINING DISKURSIV XUSUSIYATLARI

O'roqova Muborak,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi o'qituvchisi

Zamonaviy lingvistika matnni endilikda faqat statik, struktur birlik sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-madaniy sharoitda yuzaga keladigan va ma'lum bir kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan murakkab diskursiv faoliyat sifatida talqin etmoqda. Shu jihatdan qaralganda, sud-tibbiy ekspertiza matnlari o'zining ko'p qatlamli, funksional tabiati bilan alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Diskursiv tahlil metodologiyasi tilning ijtimoiy, madaniy va huquqiy kontekstdagi ishlashini o'rganishda muhim vosita sifatida katta ahamiyatga ega[1]. Sud-tibbiy ekspertiza matnlari tibbiy faktlarning aniqligi, huquqiy talablarning qat'iyligi hamda rasmiy kommunikatsiya normalarining me'yoriyligi uyg'unlashgan holda, o'ziga xos va murakkab diskurs turini shakllantiradi. Shu bilan birga, amaliy materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur matnlar bir vaqtning o'zida bir nechta kommunikativ vazifani bajaradi va aynan shu jihat ularning diskursiv murakkabligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Sud-tibbiy ekspertiza xulosasi o'zida bir necha murakkab funksiyani mujassamlashtiradi: u ham ilmiy hujjat, ham huquqiy dalil, ham institutsional kommunikatsiya vositasi, ham jamiyat uchun mas'uliyatli axborot manbaidir. Shu sabab bu matn turining lingvistik tuzilishi, kommunikativ strategiyalari va pragmatik xususiyatlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'ta muhimdir.

Matnlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sud-tibbiy ekspertiza xulosalari nafaqat sof huquqiy, balki sof tibbiy diskurs doirasiga ham to'liq sig'maydi; aksincha, ular har ikki sohaning muhim belgilarini o'zida mujassam etgan gibrid matn turini tashkil etadi. Bunday sintez natijasida mazkur matnlar bir vaqtning o'zida ham ilmiy aniqlikni, ham huquqiy asoslanganlikni ta'minlovchi murakkab kommunikativ birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu hodisa Mixail Baxtin tomonidan ilgari surilgan «heteroglossia» tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda turli nutq uslublari va ijtimoiy tillarning bir matn doirasida uyg'unlashuvi

[1] Teun A. van Dijk T. A. (1997). Discourse as Social Interaction. London: Sage Publications, pp. 1-37.